



2025
№10

ISSN 3060-527X

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR.



**TA'LIMDA ISTIQBOLLI
IZLANISHLAR**

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**

Международный научно-методический
журнал

**PROSPECTIVE RESEARCH IN
EDUCATION**

International scientific methodological journal

№ 10-Son, 2-Qism 2025-yil

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Norova Fazilat Fayzulloyevna,
*Buxoro davlat universiteti "Axborot tizimlari
va raqamli texnologiyalar" kafedrası tayanch doktoranti*

TA'LIM JARAYONIDA MOBIL ILOVALAR ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Anotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida mobil ilovalar yordamida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda mobil ilovalarning rivojlanish bosqichlari, ularning ta'limdagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, turli platformalar (Duolingo, Quizlet, Kahoot, Google Classroom, Telegram va boshqalar)ning ta'lim jarayonida qo'llanish imkoniyatlari hamda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishdagi roli ochib berilgan. Tadqiqotda mobil ilovalar asosidagi ta'limning afzalliklari bilan bir qatorda texnik, pedagogik, psixologik, tengsizlik va metodologik muammolar ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: mobil ilovalar, kommunikativ kompetentlik, interaktiv platformalar, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития коммуникативной компетентности студентов с использованием мобильных приложений в образовательном процессе. Анализируются этапы развития мобильных приложений, их роль и эффективность в обучении. Особое внимание уделено возможностям различных платформ (Duolingo, Quizlet, Kahoot, Google Classroom, Telegram и др.) и их влиянию на формирование коммуникативной компетентности. Наряду с преимуществами обучения с применением мобильных приложений в исследовании выделены также технические, педагогические, психологические, социальные и методологические проблемы.

Ключевые слова: мобильные приложения, коммуникативная компетентность, интерактивные платформы, эффективность обучения.

Abstract. The article discusses the development of students' communicative competence through the use of mobile applications in the educational process. The stages of mobile application development, their role and effectiveness in education are analyzed. Particular attention is given to the potential of various platforms (Duolingo, Quizlet, Kahoot, Google Classroom, Telegram, etc.) and their contribution to the formation of communicative competence. Alongside the benefits of mobile application-based learning, the study also highlights technical, pedagogical, psychological, social, and methodological challenges.

Key words: mobile applications, communicative competence, interactive platforms, learning effectiveness.

Kirish. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga tubdan yangicha yondashuvlarni olib kirishga sabab bo'ldi. Ayniqsa, mobil ilovalar yordamida ta'lim berish, talabalarning o'zlashtirish samaradorligini oshirish va ularning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari dolzarb ilmiy muammoga aylangan. Kompyuterlashtirish jarayonlari XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan bo'lsa, XXI asr boshida mobil texnologiyalar va smartfonlar keng ommalashib, o'quv jarayonida qo'llaniladigan asosiy vositalardan biriga aylandi. Shu bilan birga, kommunikativ kompetentlik - ya'ni shaxsning muloqot qilish, o'z fikrini aniq ifoda eta olish, boshqalar bilan samarali hamkorlikda ishlash qobiliyati - bugungi globallashuv davrida muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida qaralmoqda.

Ushbu maqolada mobil ilovalardan foydalanib kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi tarixiy bosqichlar, olimlarning qarashlari hamda hozirgi kunda mavjud dolzarb muammolar kontekstida yoritiladi.

Mobil ilovalar ta'lim jarayonida qo'llanilishidan oldin ham kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lgan. Shuni ta'kidlash joizki, bu boradagi izlanishlarni bir necha tarixiy bosqichlarda ko'rib chiqish mumkin:

1960–1980-yillar Axborot texnologiyalari dastlabki davrda kompyuter texnologiyalari ta'limga kirib keldi. B.F. Skinner, J. Piaget, L.S. Vygotskiy kabi olimlar ta'lim psixologiyasi, o'qitishda texnik vositalar va muloqotning ijtimoiy-psixologik jihatlarini bo'yicha tadqiqotlar olib bordilar. Ayniqsa, Vygotskiy kommunikativ faoliyatni shaxs kamolotida muhim omil sifatida ta'kidlab o'tdi. **1990-yillar** Internetning keng tarqalishi davrda elektron o'qitish tizimlari shakllana boshladi. Masalan, M. Warschauer va K. Beauvois xorijiy tillarni o'qitishda kompyuter texnologiyalarining kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rnini tadqiq qildilar. **2000-yillar** – Mobil texnologiyalar davriga kelib, Smartfonlarning ommalashishi bilan ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlar yuzaga keldi. J. Traxler (2007) mobil ta'limni "ta'lim jarayonini joy va vaqt chegaralaridan ozod qiluvchi innovatsion model" sifatida ta'rifladi. Shu davrda ko'plab olimlar mobil ilovalar yordamida talabalarning muloqot qilish malakalarini rivojlantirish mumkinligini amaliy tadqiqotlar bilan isbotladilar. **2010-yildan hozirgi kungacha, ya'ni** raqamli transformatsiya davrda, turli mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet, Kahoot, Google Classroom, Telegram va boshqalar) ta'lim jarayonida keng qo'llanila boshlandi. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda interaktiv platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt texnologiyalari faol foydalanilmoqda. Masalan, S. Kukulska-Hulme va A. Shield (2010) mobil til o'rganish ilovalari orqali talabalar o'zaro muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ta'kidlashgan.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda turli xil mobil platformalar samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Ularning har biri o'ziga xos imkoniyatlarga ega bo'lib, ta'lim jarayonining turli bosqichlarida o'quvchilarning muloqot, hamkorlik va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Til o'rganish ilovalari (Duolingo, Memrise, LinguaLeo). Ushbu ilovalar foydalanuvchilarga chet tillarini o'rganish uchun interaktiv mashqlar, talaffuzni tekshirish, lug'at boyligini oshirish va gap tuzish imkonini beradi. Masalan, Duolingo til o'rganishni bosqichma-bosqich mashqlar orqali tashkil etib, foydalanuvchiga til materiallarini takrorlash va mustahkamlash imkonini beradi. Memrise esa vizual tasvirlar, eslab qolish usullari (mnemonika) va jonli videolar orqali o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi. Natijada, talaba o'rganayotgan tilida o'z fikrini erkin ifoda etish, dialog yuritish va muloqot qilish qobiliyatini shakllantira oladi.

2. Virtual sinflar (Google Classroom, Moodle, Edmodo). Bu platformalar o'qituvchi va talaba o'rtasida doimiy muloqot, topshiriqlarni yuborish va baholash jarayonini yengillashtiradi. Masalan, Google Classroom orqali o'qituvchi o'quv materiallarini joylashtirishi, talabalarning savollariga javob berishi va ularning faoliyatini nazorat qilishi mumkin. Moodle tizimi esa ta'lim jarayonini boshqarish, testlar yaratish va onlayn kurslarni tashkil etishda keng qo'llaniladi. Bunday virtual sinflar talabalarda mas'uliyat, hamkorlik va o'z fikrini mantiqiy asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. Interaktiv o'yin platformalari (Kahoot, Quizizz). O'yin shaklidagi o'quv faoliyati talabalarning qiziqishini oshiradi, raqobat muhiti esa ularni faolroq muloqot qilishga undaydi. Kahoot yordamida o'qituvchi turli test va viktorinalar tashkil etadi, talabalar esa real vaqt rejimida savollarga javob berib, natijalarni kuzatadilar. Quizizz esa mustaqil mashg'ulotlar va uy vazifalarini o'yin shaklida bajarish imkonini beradi. Shu orqali talabalar o'z bilimlarini tekshiribgina qolmay, balki jamoada ishlash, fikr bildirish va o'zini erkin ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar (Telegram, WhatsApp, Microsoft Teams). Ushbu platformalar nafaqat tezkor aloqa vositasi sifatida, balki guruhli loyihalar, muhokamalar va axborot almashish jarayonida ham qo'llaniladi. Masalan, Telegram guruhlarini orqali talabalar

mavzularni muhokama qilishlari, qo'shimcha material almashishlari va savol-javob olib borishlari mumkin. Microsoft Teams esa video darslar, onlayn uchrashuvlar va birgalikda hujjat tahrirlash imkoniyatini beradi. Bunday hamkorlik muhiti kommunikativ kompetentlikni mustahkamlash, ya'ni talabalarning o'z fikrini aniq ifoda etish, boshqalarni tinglash va birgalikda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bu vositalar nafaqat bilim olishni, balki hamkorlikda ishlashni, guruhviy qaror qabul qilishni, o'zaro fikr almashishni o'rgatadi. Natijada, talabalarda nutq madaniyati, samarali muloqot olib borish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Mobil ilovalar yordamida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish bugungi kunda katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, amaliyotda bir qator muammolar mavjud. Ularni hal etish jarayoni mobil ta'limning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Texnik muammolar. Ta'lim jarayonida mobil ilovalardan samarali foydalanish ko'p hollarda texnik sharoitlarga bog'liq. Ayrim hududlarda internet tezligining pastligi, barqaror aloqa tarmog'ining yo'qligi yoki qurilmalarning (smartfon, planshet, noutbuk) yetarli emasligi ta'lim samaradorligini cheklaydi. Bundan tashqari, dasturiy ta'minotning qimmatligi yoki litsenziyalik versiyalarning har doim ham mavjud emasligi ta'lim jarayonida teng imkoniyatlarni ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

2. Pedagogik muammolar. O'qituvchilarning mobil ilovalardan foydalanish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi dolzarb muammolardan biridir. Ko'plab pedagoglar mobil texnologiyalarning ta'limiy salohiyatini to'liq anglab yetmaganligi sababli ularni dars jarayonida samarali qo'llash imkoniyatlari cheklangan. Shuningdek, o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarining yetarli emasligi mobil ilovalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishni qiyinlashtiradi.

3. Psixologik muammolar. Mobil ilovalardan foydalanishning o'ziga xos xavflari ham mavjud. O'quvchilar telefonlardan ta'limiy maqsadlarda foydalanish o'rniga, ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarga, o'yinlarga yoki turli ko'ngilochar kontentlarga berilib ketishlari mumkin. Bu esa ularning diqqatini chalg'itadi, vaqtni samarasiz sarflashga olib keladi va o'quv motivatsiyasini pasaytiradi. Shuningdek, mobil texnologiyalardan ortiqcha foydalanish sog'liq muammolarini (ko'z zo'riqishi, asabiylik, uyqusizlik) ham keltirib chiqarishi mumkin.

4. Tengsizlik muammosi. Mobil ta'lim imkoniyatlari barcha o'quvchilar uchun bir xil darajada mavjud emas. Ayrim hududlarda mobil internetning yo'qligi yoki zamonaviy qurilmalarning yetarli darajada tarqalmagani natijasida o'quvchilar teng imkoniyatlarga ega bo'la olmaydilar. Bu esa ta'limda ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytirishi, shuningdek, bilim olishda nomutanosiblikni yuzaga keltirishi mumkin.

5. Metodologik muammolar. Mobil ilovalardan foydalanish bo'yicha yagona standart va metodik ko'rsatmalar hali to'liq ishlab chiqilmagan. Shu bois, bugungi kunda ilmiy izlanishlar nafaqat mobil ilovalarning afzalliklarini o'rganishga, balki ularni samarali qo'llash, metodik asoslarini ishlab chiqish va ta'lim muhitida teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilishi lozim.

Yuqoridagi muammolar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ilmiy izlanishlar nafaqat mobil ilovalarning afzalliklarini o'rganishga, balki ularni samarali qo'llash, didaktik va metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ta'lim muhitida teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, ta'limda mobil texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshiradi, o'quvchilar va talabalar orasida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga keng yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, A. Abduqodirov, N. Sodiqov, Sh. Toshpulatov va boshqa olimlar (Abduqodirov, 2018; Sodiqov, 2019; Toshpulatov, 2020) o'z izlanishlarida mobil ta'lim, elektron darsliklar hamda masofaviy ta'lim imkoniyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar.

Shuningdek, A. Kadirov, M. Karimov va boshqa tadqiqotchilar (Kadirov, 2020; Karimov, 2021) kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda interaktiv metodlarning ahamiyatini tahlil

qilganlar. Ularning tadqiqotlari talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, o'zaro hamkorlikni kuchaytirish hamda samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvlarning pedagogik asoslarini ochib bergan.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda bir qator muammolar kuzatiladi. Avvalo, aksariyat ilmiy ishlar umumiy nazariy tavsiyalar darajasida qolib ketgan bo'lib, amaliy qo'llanmalar va tajribaviy sinovlar yetarlicha olib borilmagan (Sodiqov, 2019). Masalan, ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan Duolingo, Quizlet, Telegram platformasi kabi mobil ilovalar samaradorligini empirik tadqiqotlar asosida baholash ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan. Natijada, mobil ilovalar yordamida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa-da, uning amaliy jihatlari hali to'liq ochib berilmagan.

Bundan tashqari, o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini o'lchash va baholash uchun maxsus mezonlar hamda diagnostika metodikalari ishlab chiqilmagan (Karimov, 2021). Bu esa ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan mobil ilovalar va interaktiv metodlarning real samaradorligini aniq ko'rsatkichlar asosida baholash imkoniyatini cheklaydi. Shunday ekan, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirish, ularni tajribaviy sinovlar bilan boyitish hamda kommunikativ kompetentlikni baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Ta'lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Duolingo, Quizlet, Kahoot, Google Classroom, Telegram kabi platformalar orqali o'quvchilar muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash va tanqidiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantira oladilar. Ushbu vositalar ta'limni interaktiv va qiziqarli shaklda tashkil etib, o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mobil ilovalardan foydalanishda texnik, pedagogik, psixologik, teng imkoniyat va metodologik muammolar mavjudligi aniqlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish, amaliy tajribalarni kengaytirish hamda baholash mezonlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Demak, mobil ilovalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish nafaqat bilim berish samaradorligini oshiradi, balki talabalarda nutq madaniyati, samarali muloqot olib borish va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashga keng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abduqodirov, A.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
2. Sodiqov, N. Elektron ta'lim muhitida talabalar kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Toshpulatov, Sh. Mobil ilovalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi. – “Ta'lim texnologiyalari” ilmiy jurnali, 2020, №2.
4. Karimov, M. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: TDPU ilmiy axborotlari, 2021.
5. Полат, Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2009.
6. Андреев, А.А. Дистанционное обучение и мобильные технологии. – Москва: Изд-во МГУ, 2012.
7. Абдуллина, А., Сейткасымова, Р. Мобильное обучение иностранным языкам: опыт Казахстана. – Алматы: “Қазақ университеті”, 2017.
8. Солдаткин, В.И. Мобильное образование: перспективы и проблемы. – Москва: Вузовская книга, 2015.

9. Traxler, J. Defining, Discussing and Evaluating Mobile Learning: The Moving Finger Writes and Having Writ... – The International Review of Research in Open and Distance Learning, 2007.
10. Kukulska-Hulme, A., & Shield, A. An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction. – ReCALL, 2010.
11. Warschauer, M. Computer-Assisted Language Learning: An Introduction. – In Fotos, S. (Ed.), Multimedia Language Teaching, Tokyo: Logos International, 1996.
12. Beatty, K. Teaching and Researching: Computer-Assisted Language Learning. – Routledge, 2010.
13. Chen, C.M., & Hsu, S.H. Personalized Intelligent Mobile Learning System for Supporting Effective English Learning. – Educational Technology & Society